

# Maqsad ishlab chiqarishda ekologik tozalikni ta'minlash, chiqindisiz texnologiyalarni va atrof-muhitni saqlash dasturlarini joriy etish

// 06 November 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maqsad-ishlab-chiqarishda-ekologik-tozalikni-ta-minlash-chiq>



## ISHLAB CHIQRISH VA ATROF-MUHIT



[uzkimyosanoat.uz](https://uzkimyosanoat.uz)



@uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-son Farmonida hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida yirik sanoat korxonalari tashlamalarini keskin qisqartirish maqsadlari ilgari surilgan.

Shu o'rinda "O'zbekimiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida hukumat qaroriga asosan, ekologik vaziyatni yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tarmoqni chiqindisiz sohaga aylantirish, shuningdek, aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish bo'yicha "yo'l xaritasi" amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joiz, kimyoviy chiqindilarni utilizatsiya qilish - xavfsiz ishlab chiqarish ishlarini ta'minlaydigan, shuningdek, atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan muhim jarayondir. "O'zbekimiyosanoat" AJ tasarrufidagi korxonalarda hosil bo'lgan chiqindilarni utilizatsiya qilish ishlari raqamlarda tahlil qilinadigan bo'lsa, shu yilning I choragida 12 700 tonna, 6 oyligida 17 300 tonna, 9 oyligida esa 21 300 tonna chiqindi utilizatsiya qilingan.

Shu o'rinda bir taqqos — chiqindilar hajmi joriy yilning 9 oyida 2023-yilning shu davriga nisbatan 9 076 tonnaga kamaygan. Albatta, bu tarmoq korxonalarini tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirilganligi natijasidir.

Qolaversa, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash orqali kerakli xom ashyoga aylantirish kabi innovatsion texnologiyalarning keng joriy qilinayotgani ham chiqindilar hajmini yanada kamaytirish imkonini bermoqda.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**